



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



adno" (Bas (Muhammad) ikki kamon oralig'idek yoki (undan ham) yaqinroq bo'ladi) ga ishora qiladi.

Qoshingg'a "qoba qavsayn" oyatidin yo'q nima alyaq

Sochingg'a yo'q savodi laylat ul-me'rojdin ashhab.

"Favoyid ul-kibar" devonidagi 92-g'azalda Navoiy Payg'ambar (s.a.v.) visolga yetishi uchun alohida bir tun "Laylat ul-me'roj" – me'roj tuni deb atalganligi haqida so'z yuritadi:

Zihe, ko'k boshig'a gardun xiromoningning izidin toj,

Visoling xilvatida bir shabiston bo'ldi laylat ul-me'roj.

G'azalning keyingi baytida me'roj tunidagi oy Payg'ambar (s.a.v.) yuzidan nur olayotganligini, kechaning zulmati uning sochidan rang olganligi haqida so'z yuritib husni ta'lil san'atini qo'llaydi:

Yuzung xurshididin ul tun topib xayli kavokib nur,

Sochingning zulmati ul kecha tun rangini aylab doj.

Baytlarning birida me'roj tunida Muhammad (s.a.v.)ning ummatlari gunohini so'rab olganligi ta'did san'ati yordamida tasvirlangan:

Tilab ummat gunohin har nekim istab, topib baxshish,

Zihe soyil, zihe bozil, zihe rif'at, zihe me'roj.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, me'rojnoma g'azallarda ko'proq iqtibos va tashbeh san'atlaridan foydalanilgan. Me'roj kechasini tasvirlashda Navoiy bu hodisa haqida nozil bo'lgan oyatlarga ko'p bora murojaat etadi. Me'rojnoma Navoiy ijodining asl mohiyatini o'rganish uchun ham muhim hisoblanadi. Na't g'azallar insonni komillikka undaydi, me'rojnoma na'tlarda shoirning bu mo'jizadan ta'sirlanishi, ilhomlanishini ko'rish mumkin. Me'roj hodisasi Navoiy uchun doim inson kamolotining yuksak namunasi bo'lib kelgan. Navoiyning bunday asarlari Payg'ambar (s.a.v.)ni xos sifatleri bilan tanishga va u kishining go'zal xulqlaridan ibrat olishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimai. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. – T.: Hilol-nashr, 2020.
2. Gafforova Z. Navoiyning hamd va na't g'azallari. – T.: Ma'naviyat, 2001.
3. Rabg'uziy N. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. – T.: Yozuvchi, 1991.
4. Obidov R. Sarvarova D. Muqaddas oylar va mustajob duolar. – T.: O'zbekiston NMIU, 2004.
5. Nasafiy A. Zubdat ul haqoyiq. – T.: Kamalak, 1996.
6. Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. 1-2-3-4-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.

ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA JON VA ISHQ MUNOSABATINING BADIY IFODASI

Ibotova Madina Otabek qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Ishq muammosi Sharq she'riyatining yetakchi mavzularidan biridir. "Farhangi zaboni tojik"da ishq kalimasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Hissi dilbastagi va do'stdori az had ziyod ba chize yo ba kase. Muhabbat, sheftagy. **Tarjimasi:** nimagadir, kimgadir haddan tashqari ko'ngil bog'lash va sevish hissidir. Muhabbat, oshiqlik."

“Ishq” arabcha soʻz boʻlib, uning lugʻaviy maʼnosi pechak maʼnosini anglatuvchi “ashaqa” oʻzagi bilan bogʻliq. Ashaqa oʻzini oʻrab turgan daraxtning suvini soʻradi, uni zaiflashtiradi va soʻlib quritadi. Demak, ishqning “ashaqa”ga oʻxshatilishining ikki asosi bor: birinchisi, u oʻzi chirmagan daraxt bilan birlashib ketadi, ikkinchi tomondan, uni quritadi, zaiflashtiradi.

Islom mintaqada adabiyotida ishq ikki maʼnoda: ilohiy va majoziy maʼnoda qoʻllanilgan boʻlib, manbalarda taʼkidlanishicha, mazkur kalima VIII asrdan boshlab, Alloh va Uning bandasi oʻrtasidagi munosabatni tasvirlash uchun ishlatilgan [6]. Islom falsafasi va tasavvufda ishq mavzusi keng tahlil va talqin qilingan boʻlib, adabiyotning ham eng koʻp murojaat qilingan mavzusiga aylangan. Buni Jaloliddin Rumiy oʻzining “*Kimki ishqqa moyil boʻlmasa, qanotsiz qush kabidir*” degan hikmatida aniq va loʻnda badiiy ifodalaydi.

Umuman olganda, borliq ishq tufayli yaratilgan. Ishq Yaratganga olib boruvchi eng qisqa, biroq eng qiyin yoʻl. Bu yoʻl aqlga ziddir. Chunki aql yurakni ishqdan “ajratishni” istasa, yurak ishq tomon yugurgisi keladi. Shuning uchun ham oshiq aqlga emas, muhabbatga ergashadi. Mazkur mavzu tasavvuf adabiyotida ham oʻziga xos talqin qilingan. Jumladan, Sulaymon Boqirgʻoniy ilohiy ishq haqidagi falsafiy, axloqiy qarashlarini quyidagi misralarda aks ettirgan:

Mening jonim sening ishqing bilodir,

Tanim ojiz, vale jonim oʻlodir [Rahmonov N, 2003:183].

Boqirgʻoniy jon va ishqning bir-biri bilan bogʻliqligini, oshiq maʼshuqa ishq bilan tirik ekanligini taʼkidlab koʻrsatadi.

Mutasavvuf shoir Ahmad Yassaviyning fikricha esa, ishqsiz kishi saltanat sohibi boʻlsa-da u quruq jasaddir. Shoir “ishqsizlarning joni yoʻq” deyish bilan ularni inson qatorida koʻrmaydi, hatto ishq boʻlmagan jismda iymon ham boʻlmaydi deb talqin qiladi. Chunonchi, Yassaviy yozadi:

Ishqi tegsa, kuydurgisi jonu tanni,

Ishqi tegsa, vayron qilur movumanni.

Ishq boʻlmasa topib boʻlmas, Mavlon, sani,

Har ne qilsang, oshiq qilgʻil, parvardigor [Yassaviy, 1991:43].

Jon (ruh) – ishq munosabatini badiiy talqin etishda ulugʻ shoir Alisher Navoiy salaflarining anʼanalari davom ettirish bilan birga, oʻziga xos tasvirlar yaratdi. Shoirning taʼkidicha, ishqning manzili ruh. Bu bilan ulugʻ shoir islom falsafasining oʻzagi boʻlgan ibtido va intihoga yaʼni insoning yaratilishi va asl mahzarga qaytishi bilan bogʻliq irfoniy gʻoyalarga ishora qiladi.

Shoir lirik merosida talqin qilingan ishq mavzusi bevosita jon (ruh) bilan aloqadorlikda tasvirlanadi. Shoirning taʼkidicha, jonning tirikligi, uning mohiyati ishqqa bogʻliqdir. Zero, Navoiy yozadi:

Jonda ishqning boʻlgʻusi, to tanda jon boʻlgʻusidur,

Tanda jondek jon aro ishqing nihon boʻlgʻusidur [Navoiy, 1987:139].

Bu baytda shoir “toki tanda jon bor ekan, yaʼni tirik ekanman, ishqing tandagi jon kabi nihon boʻladi” deydi. Baʼzan ishq dardida azoblangan lirik qahramon ikkilanadi, ishqni zohir etishga ham, sir saqlashga ham joni xavfidan qoʻrqadi:

Vahki, ishqing zohir etsam vahm erur oʻlmas manga,

Gar nihon tutsam dogʻi jon xavfidur beshak manga [Navoiy, 1987:31].

Baytda “Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi” degan hikmatning mazmuni yashiringanligini payqashi qiyin emas. Oshiq ham “kasal”dek oʻz holini pinhon tuta

olmaydi. Shoir boshqa bir baytda ishqni “jon pardasi”ga qiyoslaydi, uni pinhon tutishning imkonsizligini obrazli tasvirlaydi.

Ishqidur jon pardasida, ravshan ettim, do'stlar,
Necha kuygaymen harir ichinda o'tni yoshurub [Navoiy, 1988:63].
Boshqa bir baytda ishq va jon munosabati o'zgacha talqin etiladi:

Ishq savdosida jonimg'a ziyondur demakim,
Har kishi mundoq ziyon ishq ichra qolsa sudidur [Navoiy, 1987:195].

Ishq savdosi – shaydolik, giriftorlik. Ishq savdosi og'ir, biroq uning jabr-u sitami va alamlaridan jonimga ziyon yetadi, deb tashvishlanma, deydi shoir. Bunday ishqdan azoblanish, o'rtanmoq oshiq (jon) uchun foydalidir. Demak, baytda shoir ishq inson vujudini poklovchi vosita, jon (ruh)ni esa u orqali kamolga yetishiga ishora qiladi.

Ulug' shoir jon va ishq munosabatini o'ziga xos talqin qilar ekan, ishqning jismu jonni kuydiruvchi xususiyatiga alohida urug' beradi. Ishqning jonni azoblashi, o'rtashi va ba'zan esa ishqning azoblari jonga malham bo'lishini obrazli tarzda badiiy talqin etadi. Shu orqali ishqning inson vujudini poklashiga urug'u beradi.

Badiiy adabiyotda jon va jonon so'zlari ko'p hollarda birgalikda keladi. Jon hayotda tiriklikni ta'minlovchi ne'mat bo'lsa, jonon-mahbuba, yor so'zlarining sinonimidir. Jonon so'zi jon so'zidan kelib chiqqanligini tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov yorning azizligi jihatidan jonga o'xshatilganligi bilan izohlaydi. Ya'ni jonon - “jon kabi”, “jonga o'xshash”, “jondan shirin” ma'nolarini anglatadi [Komilov, 1991:5].

Tirik yururmen-u bor mendin ayru jononim,
Bu umr birla yurib o'lmagan mening jonim [Navoiy, 1988:324].

Mumtoz she'riyatda ma'shuqani *jon*, *jonon* obrazida tasvirlash an'ana tusini olgan. Oshiqning joni - ma'shuqasi. Bunday hollarda ayriliqda qolgan oshiq o'zini jonsiz tanaga o'xshatadi. Lekin mazkur baytda tasvirlanishicha, oshiq yoridan “ayru”, lekin o'zi tirik. Lirik qahramon “o'lmay yurgan joni”ga o'zi ham ajablanadi. Shoir bu baytda xalqning “o'lmagan jon” iborasini qo'llab, ta'sirdorlik va xalqonalik ruhini bergan.

Quyida keltirilgan baytlarda ham jonon – ma'shuqa ma'nosida qo'llangan. Tanaga jon kerak bo'lgani kabi, oshiq uchun ham jononsiz hayot kerak emas. Jononsiz jon jonsiz tana kabi.

Tang'a jon kirgan kibi jononni yetkur, ey tabib,
Emdikim jondin ramaq zohir emas bemorida.
Vahki, bir qotilg'a oshiqmenki, jonning biymi bor,
Ishqining jon ichra ham ihfosi ham izhorida [Navoiy, 1988:43].

Oshiq – bemor. Hatto uning nafas olishi ham sezilmaydi. Shoir buni “ramaq” so'zi orqali beradi. *Ramaq* – jon chiqar oldidagi nafas; oxirgi nafas. Lirik qahramon tanidagi jon kabi aziz bo'lgan “jonon”ga oshiq. Jonon esa – qotil. Qotildan esa oshiqning joni uchun xavf-xatar, tahlika (ramaq) bor.

Demak, ishq jon va jism orasidagi munosabatlarni murakkablashtiradi. Shoir baytda bu murakkablikni “qotil” – ma'shuqa timsolida badiiy talqin etadi.

Quyidagi baytda ham jon va jonon munosabati xususida fikr yuritiladi.

Ey Navoiy, borg'ali jonon sori jonim yetar,
Jong'a jonondan jafo, men xastag'a jondin javr [Navoiy, 1988:49].

Mazkur baytda ham jon jonondan, jism esa jondan jafo chekish bilan bog'liq tasvir keltirilgan. Ulug' shoir mazkur tasvirlar bilan ishqning murakkab tabiati, oshqlik maqomidagi lirik qahramonning qismati va uning oliy maqsadini jon va jonon

munosabati orqali ko'rsatib bergan. Oshiq (jon) jonon sari qanchalik intilmasin javru jafolar kamaymaydi, balki, sitamlar kuchayadi, ozorlar ko'payadi. Bunday "zulm"larga bardosh bergan oshiqqa esa ulug' saodat nasib qiladi.

Jonni jonon gar tilar, billahki, minnat jong'adur,
Har nechuk hukm etsa, tegmas jong'a jonon birla bahs. [Navoiy, 1987:98].

Oshiqning ma'shuqa uchun ehson qiladigan yagona joni bor. Chunki uning uchun bundan aziz narsa yo'q. U mana shu aziz ne'matni jonon – ma'shuqa tilasa, bundan uning joni minnatdor bo'ladi. Chunki "jonni jonon tilashi" oshiq uchun ulug' mukofot va marhamatdir. Shuning uchun jonon qanday hukm chiqarmasin, jon (oshiq) jonon bilan bahslashmaydi.

Hijron kuni har xastaki jonong'a yo'luqti,
Qil uyla tasavvurki o'luk jong'a yo'luqti [Navoiy, 1987:591].

Jonon vasliga yeta olmagan oshiq doimo hijronga giriftor. Shoir oshiqning bunday holatini "o'luk jon" ga qiyoslaydi. Hijronga giriftor bo'lgan oshiq tasodifan jononga ro'para kelib qolsa, bu xuddi o'likka jon kirganday.

Xullas, Alisher Navoiy g'azallarida jon (ruh) tasvirini kuzatar ekanmiz, uning inson jismi, ishq, jonona kabilar bilan bog'liqlikda tasvirlanganligini ko'ramiz. Bu aloqadorlik ko'pgina g'azallarda o'z aksini topgan.

Umuman olganda, Navoiy lirik qahramoni jon, ruh, jism, jonon, ishq tushunchalari orqali borliqqa nazar soladi. Oshiqning joni (ruhi) hayotdan insonga, insondan Haqqa yuzlanadi. Mutafakkir shoir Alisher Navoiy lirik qahramon kechinmalari, hayoti, orzu niyatlari, iztirob va dardlarini badiiy ifodalashda jon (ruh), jismning holatidan mahorat bilan foydalanadi. Jon – jism, jon – ishq, jon – jononning turli sifat va o'zgarishlarini tasvirlab, ilohiy muhabbat, ishq va oshiqlik muammolariga o'zining munosabatini bildiradi. Shuning uchun mumtoz adabiyotda, ayniqsa, Alisher Navoiy g'azaliyotida ruh tushunchasi ishq, ayriliq, sog'inish va ruhiy izlanishlarning ramziy ifodasi sifatida qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. Badoye' ul-bidoya . MAT. XX jildlik. I jild. –T.: "Fan", 1987.
2. Navoiy Alisher. Navodir un-nihoya . MAT. XX jildlik. I I jild. –T.: "Fan", 1987.
3. Navoiy Alisher. G'aroyib us -sig'ar. MAT. XX jildlik. III jild. –T.: "Fan", 1988.
4. Komilov N. Jon va jonon mojarosi. G'azallar. Sharhlar. -T.: "Kamalak". 1991.
5. Yassaviy Ahmad. Hikmatlar. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1991.
6. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. I jild. Tuzuvchi: Rahmonov N. Fan, 2003.
7. <https://www.feniksdergi.org/islam-felsefesinde-ask-kavrami>

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIMOV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBLOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581